

SUV TEJAMKOR SUG'ORISH TEXNOLOGIYALARI

Xonaliyev Elbek G'oyibnazar o'g'li

"TIQXMMI" MTU ning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti talabasi

O'ralov Shoxjaxon O'ral o'g'li

"TIQXMMI" MTU ning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti talabasi

Dusmaxmatov Samariddin Sadriddin o'g'li

"TIQXMMI" MTU ning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Qishloq xo'jaligi suv bilan ta'minlashda yangi suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini qo'llashning ekspulatsiya ko'rsatkichlarini taxlil qilish.

Kalit so'zlar: sug'orish texnologiyasi, tabiiy-iqlimi, "sprinkler tizimi", sizot suvlar, diskritli usul.

Abstract: This article is an analysis of the performance indicators of the use of new water-saving irrigation technologies in agricultural water supply.

Key words: irrigation technology, medical climate, sprinkler system, filtered water, discrete method.

O'zbekiston Respublikasi orol dengizi havzasida joylashgan bo'lib uning asosiy suv manbai Amudaryo va Sirdaryo daryolari shuningdek ichki daryo va soylari hamda yer osti suvlaridir. Ma'lumki Respublikamizda 1 yilda o'rtacha suv sarfi 52 mlrd m³ suv ishlatiladi shundan 80% chegaraviy daryolar orqali muzliklar qorlar erishi natijasida shakllanadi. Respublikamiz oladigan suvning 90% qishloq xo'jaligi sohasida foydalaniladi. Biroq so'ngi yillarda sezilayotgan iqlim o'zgarishi va antropogen ta'sirlar oqibatida tog'liklardagi muzliklar maydoning kamayishi natijasida markaziy osiyo daryolari hisoblangan Amudaryo va Sirdaryoning Suvlik darajasining kamayishi kuzatilmoqda. Uning oqibatida suv tanqisligi sug'oriladigan yerlarga yetmayotganligi kuzatilmoqda. Bunday muammolarni bartaraf etish suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalariga o'tishni taklif qilaman. Ya'ni yomg'ir latib sug'orish ekinlarni sun'iy yomg'ir hosil qilish asosida mo'ljlanlangan sug'orish usuli hisoblanadi.



1-rasm. Suv tejamkor sug'orish texnologiyalari.

Qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishning tuproq va o'simliklar sathi ustiga imkon boricha tabiiy yomg'irlatishni imitatsiya qiluvchi sepish tarzida suv yetkazib beradigan usul hisoblanib keng qamrovli yomg'irlatib sugo'orish tizimi aylanama yoki frontal harakatlanuvchi agregatlar yordamida "sprinkler" tizimi purkovchi uskunalar yordamida sug'orish mobil yomg'irlatib sug'orish tizimi ko'chma tirkama va baraban agregatlar yordamida yomg'irlatib sug'orish tizimi mavjud.

Diskretli sug'orish tizimi bu usulni qo'llashdan avval yer tekisligiga e'tibor qaratish lozim. Bu usulda maxsus egiluvchan quvurlar orqali suv yetkazib beriladigan usul.



2-rasm. Suv tejamkor sug'orish texnologiyalari.

Tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy etilganda ortiqcha suv sizot suvlarga qo'shilmasligi yerlarning sho'rlanishini oldini olish mumkin. Sug'orish rejimida tuproqdan bog'lanadigan suvni kamaytirish begona o'tlar bo'lmasligi bois barcha suv ekinga boradi. Suvning umumiy tejalishi 1 gektar g'o'za uchun 2.6 ming m³ (40-50%), 1 gektar bug'doy uchun 1.3 ming m³ (30-35%) va 1 gektar bog' uchun 1.8 ming m³ (40-45%)ni tashkil etadi. Shu bilan birga nishab yerlarda tomchilatib sug'orish juda katta samara beradi. Chunki bu usul tuproqning yemirlishiga olib kelmaydi bundan tashqari oddiy usul bilan taqqoslaganda sug'orish paytida tuproq cho'kishi bo'shliq

hosil bo'lishi mumkinligi tufayli adir yerlarda ushbu texnologiyani qo'llash juda samarali hisoblanadi. Tomchilatib sug'orishda o'simlik o'sishi maqbul sharoit yaratiladi. Natijada o'z quvvatini 70% hosildorlikka beradi. Hosildorlik o'rtacha 40-50% ortadi va dala bo'ylab rivojlanish bir xil bo'ladi.

Xulosa: Markaziy Osiyo hududining asosiy suv manbai Amudaryo va Sirdaryo daryolari sathi pasaygani hisobga olib suv tejash texnologiyalariga o'tishni taklif qilaman va natijada ortiqcha suv sizot suvlarga qo'shilmasligi natijasida yer sho'rlanishining oldi olinadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 10.04.2021 yildagi 119-son.
2. Азизов С. Каршинский магистральный канал. -Гидротехника и мелиоратсия, 1970, № 7.с.21-26.
3. Мамажонов М. Повышение эффективности эксплуатации центробежных и осевых насосов насосных станции оросительных систем. Автореферат дис...докт.техн.наук.- Ташкент: ТИМИ, 2006.